


Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Denov tumaniga tashrifining keyingi manzilida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar va ulardag'i mavjud muammolarni o'rgandi. Dastlab, “Namozgoh” mahallasi hududida barpo etilayotgan “Savdo majmuasi” loyihasi bilan tanishildi.



Denov tumani hokimligi qoshida tashkil etilgan direktsiya tomonidan 21 hektar maydonda qiymati 346 mlrd so'mlik 25 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Hozirda 8,2 hektar maydonda 29 mlrd so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Yer va mulk huquqi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Viloyat rahbari loyiha bilan tanishib, mavjud muammolarni tomonlar bilan batafsil o'rzanib chiqish hamda huquqiy yechimlarini qilish bo'yicha mas'ullarga ko'rsatmalar berdi.

Keyingi manzilda viloyat rahbari "Qo'zichoqli" mahallasi hududida "Abbos eko agro" MChJ tomonidan amalga oshirilayotgan miniven va kichik yuk mashinalari ishlab chiqarish loyihasini ko'zdan kechirdi. Xitoylik hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan loyihada ham mavjud muammolar o'rzanildi.

2024 yilda ishga tushirilishi rejalashtirilgan loyihaning muammolarini o'rzanib, tegishli tartibda hal qilish choralarini ko'rish bo'yicha mas'ullarga vazifalar yuklandi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)